



BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Soliyev Ilxomjon Sobirovich

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdusattorova Mohidil Sahobiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17587721>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 08-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 12-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Empatiya dizayn fikrlash
metodi, "CRH" (Creative
Responsibility Hypothesis) modeli,
ta'lim, kreativlik, ijtimoiylashuv,
samaradorlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlar asosida o'qituvchilar va o'ta-onalar o'zlari uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, yangilikka intiluvchi shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, bu jarayonning boshlang'ich bosqichi juda muhim, chunki o'quvchining dunyoqarashi, qiziqishi va qobiliyatlari aynan shu davrda shakllanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish o'qituvchi oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. 2020-yilda Indoneziyada o'tkazilgan tadqiqotlarda "CRH" (Creative Responsibility Hypothesis) modeli asosida o'qitish o'quvchilarning ilmiy-ijodiy fikrlashini sezilarli darajada oshirgani aniqlangan. 2023-yilda Braziliyada olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 1–3-sinf o'quvchilarida ijodiylik darajasi intellektual rivojlanish va o'qish ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq.

2024-yilda Xitoyda olib borilgan tadqiqotlarda "Empatiya dizayn fikrlash" metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorligini rivojlantirishda yuqori natija bergan. Ushbu metod orqali bolalar faqat yangi g'oyalar yaratish emas, balki o'z g'oyalarini boshqalar hissiyotini hisobga olgan holda ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu yilda "Creative Thinking in Young Children" nomli maqolada ham ijodkorlik bolalarning tafakkuri va ijtimoiy faolligini oshirishdagi asosiy vosita sifatida qayd etildi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: Boshlang'ich sinf o'quv dasturlari bolalarning rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olib tuzilishi kerak. O'quv jarayoni o'yin, ijodkorlik va tadqiqotga asoslangan bo'lishi muhimdir. O'quv materiallarining tanlovi: O'quv materiallari bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lishi kerak. Rang-baranglik, o'yinli elementlar, vizual materiallar va interfaol mashg'ulotlar o'quv jarayonini samarali va yoqimli qilishga yordam beradi. differentsiatsiya: Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari bor. O'quv dasturi va materiallari bu xususiyatlarni hisobga olgan holda shaxsiylashtirilishi kerak. O'qituvchining rol va vazifalari motivatsiya va qiziqishni

rivojlantirish: O'qituvchilar o'quvchilarning o'rganishga qiziqishlarini uyg'otish, ularning bilim olishiga motivatsiya yaratish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga harakat qilishlari kerak. O'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatish: O'qituvchilar o'quvchilar bilan ochiq va iliq muloqot o'rnatish, ularning fikrlarini tinglash, ularga qo'llab-quvvatlash va rahbarlik qilishga tayyor bo'lishlari kerak. Ijtimoiy va hissiy rivojlanishga yordam berish: O'qituvchilar o'quvchilarning bir-birlariga nisbatan hurmat, muloqot va hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashishi kerak.

Xavfsiz va qulay muhit: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xavfsiz, qulay va rag'batlantiruvchi o'quv muhiti yaratish juda muhimdir. O'quvchilar o'zlarini erkin va o'ziga ishonchli his qilishlari kerak. O'quv Resurslari: Sinfda zarur o'quv resurslari, shu jumladan kitoblar, o'yinchoqlar, kompyuterlar va boshqa materiallar mavjud bo'lishi kerak. O'qituvchilarning hamkorligi: O'qituvchilar bir-birlariga qo'llab-quvvatlash va g'oyalar almashish uchun hamkorlik qilishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi oilaviy muhit: Oilaviy muhit bolalarning aqliy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga kuchli ta'sir qiladi. Ota-onalar bolalarning o'qishga qiziqishlarini uyg'otish, o'qishga yordam berish, ijtimoiylashuvini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga harakat qilishlari kerak.

Xulosa; Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limni texnologik yondashuv asosida tashkil etilish, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin yaratadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o'quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo'lib qoldi. Zero, 1–4 sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari" kitobi, muallif: Ismoilov A. (Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2021)
2. "Zamonaviy pedagogika" kitobi, muallif: Yo'ldoshev F. (Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020)
3. "Bolalar psixologiyasi" kitobi, muallif: Karimova M. (Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2019)
4. "Ijtimoiylashuv psixologiyasi" kitobi, muallif: Qodirov A. (Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2018)